

MAHMUD SHUQAYR – FALASTIN ADABIYOTINING YETUK VAKILI

Maxmudqo‘ziyeva Nigoraxon Zafarjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc) dots. D.Muxiddinova

Annotatsiya: mazkur maqolada Falastin adabiyotining serqirra yozuvchisi Mahmud Shuqayrning hayoti va ijodi haqida ma’lumot beriladi. Uning asarlari va undagi bosh mavzular tahlil qilinadi. Shuningdek, adibning adabiyotdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Shuqayr, Falastin adabiyoti, Quddus, drabllar, qisqa hikoya, surgun, ayol obrazi, erkinlik, adabiy meros, Falastin madaniyati, bolalik xotiralari.

Аннотация: в данной статье представлена информация о жизни и творчестве многогранного палестинского писателя Махмуда Шукайра. Анализируются его произведения и основные темы в них. Кроме того, рассматривается место писателя в литературе.

Ключевые слова: Махмуд Шукайр, Палестинская литература, Иерусалим, драбблы, короткий рассказ, изгнание, образ женщины, свобода, литературное наследие, Палестинская культура, детские воспоминания.

Abstract: this article provides information about the life and work of the versatile Palestinian writer Mahmoud Shukair. His works and their main themes are analyzed. In addition, the writer’s place in literature is discussed.

Key words: Mahmoud Shukair, Palestinian literature, Jerusalem, drabbles, short story, exile, female figure, freedom, literary heritage, Palestinian culture, childhood memories.

Falastin adabiyotida o‘z o‘rni va uslubiga ega bo‘lgan mahoratli adib Mahmud Shuqayr 1941-yil Quddus shahrida Jabal al-Mukabir mahallasida tug‘ilgan. Bu joy Quddusning janubiy sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, o‘sha davrda oddiy falastinlik dehqon oilalari yashagan. U shu qishloqda voyaga yetgan bo‘lib, bolaligida mahalliy bolalar o‘yinlaridan biri bo‘lgan “jalul”¹ ni sevib o‘ynagan. Shuningdek, yozuvchi bolaligini eslaganda otasi har juma uni “Al-Aqso” masjidiga olib borganini, u yerda Qurbon hayit ibodatlarini va jamoat hayotini ko‘rib, qadimiy Quddus manzaralari bilan tanishganini aytadi.² Bu holat yozuvchida Vatanni sevish, uning qadriyatlarini hurmat

¹ Jalul – Falastinda bolalar kichik sharchalarni yerga kavlangan chuqurchaga otib o‘ynaydigan xalq o‘yini.

² Jerusalem Story: Mahmoud Shukair Biography. www.jerusalemstory.com

qilish va Falastinga sodiq qolish hissini shakllantiradi. Mahmud Shuqayr boshlang'ich ta'limni o'zi tug'ilib o'sgan Quddusda oladi va u maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq adabiyotga mehr qo'yadi. U maktab dasturidan tashqari ham juda ko'p kitoblar o'qigan, uning kitobga muhabbati Mahmud Shuqayrni keyinchalik qo'liga qalam olishga undagan. Yozuvchi keyinchalik ta'limni Suriyaning Damashq universitetida falsafa va sotsiologiya yo'nalishida davom ettirdi. Shuqayr universitetni tamomlagach, bir necha yil davomida o'qituvchi va jurnalist sifatida faoliyat yuritgan.

Yozuvchining ilk ijod namunasi 1961-yilda "Al-Ufuq al-Jadid" ("الافق الجديد") jurnalida hikoya shaklida chop etilgan. Shuqayr hikoyada 1948-yilda isroillik askarlar tomonidan Jabal al-Mukabirga bo'lgan hujumni tasvirlaydi. 1947-1949-yillarda sodir bo'lgan Arab-Isroil urushidan yozuvchi qishlog'i ham chetda qolmaydi. Bu urushda 750 mingdan ortiq falastinlik o'z yurtidan haydaladi yoki qochishga majbur bo'ladi, 500 dan ortiq qishloq vayron qilinadi. Yozuvchi bolaligida sodir bo'lgan bu voqea unga jiddiy ta'sir qiladi va ilk asarining bosh mavzusiga aylanadi. Shundan keyin ham yozuvchi falastinlik ziyoli sifatida mustamlakachilikka va Isroil hukumatining siyosatiga qarshi ochiq chiqishlar qilishdan to'xtamadi. U Falastin xalqining erkinligi, mustaqilligi va madaniy huquqlarini himoya qilgan maqola va hikoyalar yozishda davom etdi. Shu sababli ham Isroil uning faoliyatini siyosiy tahdid sifatida baholagan. 1970-yilda Isroil hukumati bir qancha shoir va yozuvchilarni "xalqni qo'zg'atish" da ayblagan va ular orasida Mahmud Shuqayr ham bo'lgan. Shunday qilib, adib 1975-yilda o'z Vatanidan surgun qilingan.

Surgundan oldin ham yozuvchi o'z Vatanida bir necha marta qamoqqa olingan. O'zining qamoqqa olinish jarayonlari haqida "World Literature Today" adabiy jurnaliga intervyu berganida hamma voqealarni batafsil eslagan. "Men birinchi marta 1969-yilda qamoqqa olindim. Tunda isroillik askarlar bir razvedka xodimi bilan kelishdi, meni kishanlashdi. So'ng butun uyni tintuv qilishdi, kitoblarimni ko'rib chiqishdi, ammo hech narsa topa olishmadi. Meni sharqiy va g'arbiy Quddus chegarasida joylashgan "Al-Moskobiya" qamoqxonasiga olib ketishdi. Bu qamoqxonadan Al-Ramleh, undan keyin Karmel tog'i yaqinidagi Al-Damoun qamoqxonasiga ko'chirishdi. U yerdan men o'n oy o'tgach, ozod qilindim".³

Yozuvchi 1972-yil bir yil uy qamog'iga hukm qilinadi. 1973-yil uni hibsga olish uchun yana kelishadi. Biroq yozuvchi uyda emasligi sababli unga politsiya bo'limiga borish kerakligi haqida xat qoldiriladi, lekin yozuvchi politsiya bo'limiga bormaydi. Ramallohdagi bir uyda yashirib qoladi. 1974-yil aprel oyida Mahmud Shuqayr yana hibsga olinadi va bir nechta Isroil qamoqxonalari ko'chiriladi va ularning eng oxirgisi "Beit Lid" qamoqxonasi edi. Bu qamoqxonadan yozuvchi Livan chegarasiga

³ Shareen Malherbe "Writing for the Children of Palestine: A Conversation with Mahmoud Shukair".
Worldliteraturetoday.org

surgun qilinadi. Shunday qilib, yozuvchi o‘n sakkiz yil umrini Falastindan olisda surgunda o‘tkazadi.

Mahmud Shuqayr Livanda sakkiz oy yashadi. So‘ng u Iordaniyaga ko‘chib o‘tadi va bu yerda surgunlikdagi hayotining eng ko‘p qismini yashab o‘tadi. Keyin bir muddat Chexiyada ham yashaydi. Yozuvchi bu yerda ham ijoddan to‘xtamaydi. Drabllar, qisqa hikoyalar, bolalar kitoblari va televideniye uchun asarlar yozgan. Shuningdek, u “الطليعة” (“Peshqadam”) va “دفاتر ثقافية” (“Madaniy jurnallar”) kabi jurnallarda bosh muharrir bo‘lib ishlagan. Bundan tashqari, Iordaniya Yozuvchilar Ittifoqi, Falastin Yozuvchilar va Jurnalistlar Ittifoqi kabi tashkilotlarda faol bo‘lgan va keyinchalik Falastin Milliy Kengashi a‘zolidan ham olgan.

Mahmud Shuqayr ilk hikoyasini e‘lon qilgandan so‘ng ham qisqa hikoyalar yozishda davom etdi va 1975-yilda “خبز الآخرين” (“Boshqalar noni”) nomli to‘plamini e‘lon qiladi. Bu to‘plam uning ijodida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi va ushbu kitob orqali uni ko‘plab kitobxonlar tanidi. Muallif ushbu hikoyalar to‘plamini yozayotganda Vatanidan quvg‘inda bo‘lgan. Shunga qaramasdan uning qalbida har doim Falastin dardi bo‘lgan. Mazkur to‘plam orqali u falastinliklarning Isroil tomonidan bosib olinishi, erkinlik uchun kurash, qochqinlik va jamiyatdagi adolatsizlik kabi mavzularni ilgari surgan.

Adibning ijodida muhim rol o‘ynagan boshqa to‘plam “طقوس المرأة الشقية” (“Bechora ayolning marosimlari”) deb nomlanadi. 1986-yilda nashr etilgan ushbu to‘plam drabllardan iboratdir. Muallif bu to‘plamga kiritilgan qisqa drabllar orqali jiddiy mavzularni o‘rtaga tashlaydi. Bu to‘plamda ayollarning kundalik hayotidagi mashaqqatlar, ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy muammolar asosiy mavzular sifatida yoritilgan.⁴ Ushbu kitobning ahamiyatga molik tarafi shundaki, u arab adabiyotida ayollar mavzusiga bag‘ishlangan ilk drabllar to‘plam sifatida qabul qilinadi.

Mahmud Shuqayrning qisqa hikoyalardan iborat bo‘lgan “ظل آخر للمدينة” (“Shaharning boshqa soyasi”) to‘plami esa Quddusdagi siyosiy bosimlar va ziddiyatlar, odamlarning kundalik hayoti, ijtimoiy tabaqalanish va surgun jarayonini tasvirlaydi. Ushbu to‘plamdagi har bir hikoyada Quddus tasvirini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu hikoyalarda yozuvchi qisqa va lo‘nda tildan foydalanadi. Ammo ramziy obrazlar va aniq epizodlar orqali katta tarixiy voqealarni tasvirlab beradi. Yozuvchi Quddusni jonli va og‘ir xotirali shahar sifatida ta’riflaydi. Shahar odamlarning xotirasi, yo‘qotishlari va kurashlarining markazi sifatida jonlanadi. Shuqayr Quddusni shunchaki fon sifatida emas, balki tirik personaj sifatida tasvirlaydi. Bunday yondashuv Falastin adabiyotida ko‘p ham uchrayvermaydi, shu jihati bilan ham asar diqqatga sazovordir. Arab dunyosida Quddus haqida ko‘plab asarlar yozilgan bo‘lsa-da, bu kitob kundalik va siyosatni birlashtira olgani bilan alohida ajralib turadi.

⁴ Ktabati.com

U Quddus mavzusini davom ettirgan holda “تقرير عن مدينة القدس” (“Quddus haqida hisobot”) nomli kitobini yozadi. Ushbu kitobda ham yozuvchi bir nechta mavzularni qalamga oladi. U Quddusning qadimiy merosi – ibodatxonalar, masjidlar va cherkovlar, oddiy odamlarning turmushi, urf-odatlar, zamonaviy muammolari, Isroil-Falastin mojarosi sharoitida Quddus aholisining qanday hayot kechirayotgani, o‘zining boshidan kechirganlari va shahar bilan aloqasi haqida yozadi. Ushbu asar tarix, publitsistika va badiiy tasvirni uyg‘unlashtiradi. Kitobni o‘qiyotgan kitobxon Quddusni faqat tarixiy va siyosiy jihatdan emas, balki madaniy jihatdan ham kashf qiladi. Shuning uchun ham yozuvchining bu kitobi arab dunyosida va xalqaro miqyosda Quddus mavzusini yoritgan eng mashhur adabiy asarlardan biri bo‘lib qoladi.

Yozuvchi “مديح لنساء العائلة” (“Oila ayollariga madh”) asarida ham ayol obrazini roman markaziga qo‘yadi. Mahmud Shuqayr Falastin jamiyatidagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotni bir oilaning ayollari timsolida ochib beradi. Unda ayollarning sabr-toqati, kuchi, oiladagi o‘rni va jamiyatdagi roli madh etiladi. Ushbu romanda oddiy odamlarning hayoti orqali katta tarixiy jarayonlar yoritib beriladi. Bu asar Falastin adabiyotidagi ayollarning jamiyatdagi o‘rniga yangicha nigoh tashlagani bilan ajralib turadi. Adabiyotshunoslar uni “falastinlik ayollarga bag‘ishlangan badiiy yodnoma” deb atashadi. Roman orqali Mahmud Shuqayr xalqaro miqyosda ham keng taniladi. Yozuvchining bu asari “International Prize for Arabic Fiction” mukofotining 2016-yilgi ro‘yxatidan joy egallaydi. Asar g‘olib deb topilmagan bo‘lsa-da, uning ro‘yxatdan joy olishining o‘ziyoq uni mashhur qilib yuborgan.

Yozuvchi ijodida mavzular rang-barangligini ko‘rishimiz mumkin. Uning “وردة الطفولة” (“Beg‘ubor bolalik”) kitobi avtobiografik asar bo‘lib, Shuqayrning bolaligi haqida hikoya qiladi. Arab tilida “وردة” gul degan ma‘noni ifodalaydi. Asar nomidan anglashiladiki, yozuvchi bolalikni gulga qiyoslamoqda. Yozuvchi inson umrining eng go‘zal, sodda va beg‘ubor davri deya bolalikni tasvirlamoqda. Bu asar orqali o‘qirmanlar yozuvchining shaxsiy hayotiga kirib boradi. Adib bolalik davri xotiralari, Quddusdagi hayot, o‘yinlar, tarbiya va madaniy muhit haqida hikoya qiladi. To‘plam hikoyalardan tashkil topgan bo‘lib, har biri bolalikning muayyan lahzasini yoritadi. Shuningdek, yozuvchi ota-onasi va qarindoshlari bilan bog‘liq bolalik xotiralari haqida ham yozadi. To‘plamdagi hikoyalar tilining soddaligi bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi. Kitob nafaqat yozuvchining bolaligi haqida hikoya qiladi, balki o‘sha davrdagi Quddusning madaniy hayoti va urf-odatlar haqida ham ma‘lumot beradi.

Yozuvchi Falastin adabiyotiga drabll janrini olib kirdi. Uning qisqa hikoya uslubi bilan dolzarb va jiddiy mavzularni qalamga olishi ko‘plab falastinlik va boshqa arab yozuvchilari uchun ilhom manbayi bo‘ldi. Yosh ijodkorlar Mahmud Shuqayrni o‘zlariga ustoz deb bilishdi. Mahmud Shuqayr ijodi ko‘plab yozuvchilar uchun katta maktab bo‘ldi. U haqiqat va to‘g‘riso‘zlikni o‘ziga shior qilib olgan insondir. Shuqayr

bir necha marta hibsga olinishiga, qiynoqlarga va surgunlarga qaramasdan haqiqatni yozishda davom etdi, Vataniga, millatiga va kasbiga xiyonat qilmadi.

Mahmud Shuqayr ijodi Falastin adabiyotini dunyoga tanitdi desak, xato bo'lmaydi. Yozuvchi asarlari ingliz, fransuz, ispan, italyan, turk va nemis tillariga tarjima qilingan va uning ijodi xorijiy davlatlarda ham katta qiziqish uyg'otgan. Uning bir qancha hikoya va drablari "Jerusalem Tales: Two Millenium of Stories" kitobida ingliz o'quvchisiga taqdim etilgan. Uning asarlari jahon miqyosida "Mahmoud Darwish Prize for Freedom of Expression", "Jerusalem Prize for Culture and Creativity" va "State of Palestine Award for Literature" kabi mukofotlarni qo'lga kiritgan.

1993-yilda Falastin Ozodlik Tashkiloti va Isroil o'rtasida imzolangan Oslo kelishuvi natijasida ko'plab falastinlik muhojir va siyosiy faollarga Vatanga qaytishga ruxsat berildi. Bular orasida Mahmud Shuqayr ham bor edi. Adib 18 yillik quvg'indan keyin Vataniga qaytishga muvaffaq bo'ldi. Mahmud Shuqayr ijodida erkinlikka intilish, Vatanini ozod va millatini baxtli ko'rish istagi yaqqol namoyon bo'ladi. Uning Falastin adabiyotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Yozuvchi hali ham o'z qishlog'ida yashab, ijod qilishda davom etmoqda. Mahmud Shuqayr hayoti va ijodi orqali adabiyotning kuchi nafaqat san'at, balki ozodlik va inson sha'nini himoya qilish vositasi ekanini ko'rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Mahmud Shuqayr. Boshqalarning noni (خبز الآخرين). Bayrut: دار العودة 1973.
1. 2.Mahmud Shuqayr. Rites for a Wretched Woman (طقوس لامرأة شقية). Bayrut: دار الكرمل, 1981.
2. 3.Mahmud Shuqayr. (مديح لنساء العائلة). Bayrut: المؤسسة للدراسات والنشر 2010.
3. Mahmud Shuqayr. Another Shadow of the City (ظل آخر للمدينة). Amman: دار الشروق 1998.
4. Mahmud Shuqayr. Report on the City of Jerusalem (تقرير عن مدينة القدس). Amman: دار الشروق 1996.
5. Mahmud Shuqayr. Childhood Rose (وردة الطفولة). Amman: دار الفكر 2004.
6. 7.“Mahmoud Shukair – Contributor.” Banipal Magazine. <https://www.banipal.co.uk/contributors/77/mahmoud-shukair>
7. “Writing for the Children of Palestine: A Conversation with Mahmoud Shukair.” World Literature Today, November 2024. <https://worldliteraturetoday.org/2024/november/writing-children-palestine-conversation-mahmoud-shukair-shereen-malherbe>
8. 9.“Mahmoud Shukair.” Jerusalem Story. <https://www.jerusalemstory.com/en/bio/mahmoud-shukair>